VIII BOB
SUV OQIMINING OCHIQ O‘ZANLARDAGI BARQAROR HARAKATI

8. 1. SUV OQIMINING OCHIQ O‘ZANLARDAGI BARQAROR HARAKATI VA UNING KO‘RINISHLARI. PRIZMATIK (SILINDRIK) VA NOPRIZMATIK (NOTSILINDRIK) O‘ZANLAR

Aziz o‘quvchi, biz Gidravlika, ya’ni, texnik gidrodinamika asoslarini o‘rganish jarayonida suyuqlik oqimining barqaror harakati bilan tanishgan edik. Suyuqliklar turkumiga kiruvchi, tabiatimizning eng oliy ne’mati hisoblanmish – suv oqimi uchun ham barqaror harakat $Q = const$ sarfning o‘z harakati davomida va vaqt o‘zgarishi bilan o‘zgarmasligi bilan xarakterlanadi. Garchand,suv oqimi harakati barqaror bo‘lsada ochiq o‘zanlarda o‘zanning geometrik o‘lchamlari oqim bo‘ylab o‘zgarishi (kengayishi, torayishi, o‘zan tubi balandligi belgisining keskin o‘zgarishi va boshqa holatlar) harakatdagi kesimning deformatsiyalanishiga olib kelishi tabiiy. Bu o‘zgarish oqimning barqaror tekis harakatini notekis harakatga aylantiradi.

Bu vaziyatni inobatga olib, biz ushbu bo‘limda suv oqimining ochiq o‘zanlardagi barqaror harakati va uning ko‘rinishlari bilan tanishamiz. Umuman, gidrotexnika amaliyotida suv oqimining barqaror harakati amalga oshadigan o‘zanlar oqim bo‘ylab o‘z geometrik o‘lchamlarini o‘zgartirishi yoki o‘zgartirmasliklari mumkin.

Agar o‘zanning geometrik o‘lchamlari uzunlik bo‘ylab o‘zgarmasa, tabiiyki, oqimning geometrik o‘lchamlari ham o‘zgarmaydi. Bunday o‘zanlar *prizmatik (yoki silindrik) o‘zanlar* deb yuritilishi bizga ma’lum (8. 1-rasm).

Bunday o‘zanlarda oqimning naporsiz, barqaror tekis harakati amalga oshadi. Albatta,ochiq o‘zanlarda harakat naporsiz $(p_a = p_0)$bo‘ladi.

Agar o‘zanning geometrik o‘lchamlari uzunlik bo‘ylab o‘zgarsa, oqimning geometrik o‘lchamlari ham oqim bo‘ylab o‘zgaradi. Bunday kanallar *noprizmatik (yoki notsilindrik*) *o‘zanlar*deb yuritiladi (8. 2-rasm). Noprizmatik o‘zanlarda suv oqimining barqaror notekis harakati amalga oshishi kuzatiladi.

Prizmatik o‘zanlarda, harakatdagi kesim chuqurlikka funksional bog‘liq bo‘lsa, ya’ni $\omega = f(h)$ noprizmatik o‘zanlarda oqimning harakatdagi kesimi oqim chuqurligi va uzunlikka ham funksiyaga bog‘liq bo‘ladi:

$$\omega = f(h,l)$$

Demak, prizmatik kanallar uchun $\frac{\omega}{\partial l} = 0$, noprizmatik kanallar $\frac{\omega}{\partial l} \neq 0$.



8. 1-rasm. Prizmatik (silindrik) o‘zan



8. 2-rasm. Noprizmatik (notsilindrik) o‘zan

Suv oqimining ochiq prizmatik o‘zanlardagi barqaror harakati o‘zgarmasdan tekis amalga oshsa, noprizmatik o‘zanlardagi harakati notekis amalga oshadi. Barqaror harakatlanayotgan o‘rtacha tezligi, chuqurligi, harakatdagi kesimi o‘zgarmasdan amalga oshadigan harakatni *tekis harakat* deb qabul qilsak, yuqorida qayd etilgan parametrlarning o‘zgarishi bilan amalga oshadigan harakatni *notekis harakat* deb qabul qilamiz.

Notekis harakat ham o‘z navbatida sekin o‘zgaruvchan va keskin o‘zgaruvchan harakat ko‘rinishlariga ega ekanligini yuqoridagi mavzularda e’tirof etganmiz. Bu harakatlarning amalga oshish shartlariochiq o‘zanlarda barqaror naporsiz harakatlanayotganoqim uchun napor ostidagi barqarorharakatlanayotgan suyuqlik oqimi uchun bir-biriga yaqin bo‘ladi.

8. 2. SUV OQIMINING OCHIQ O‘ZANLARDAGI BARQAROR HARAKATI DIFFERENSIAL TENGLAMASI

Suv oqimining ochiq o‘zanlardagi barqaror harakati differensial tenglamasini dastlab notekis harakatning sekin o‘zgaruvchan ko‘rinishi uchun keltirib chiqaramiz va uninghususiy holati sifatida,oqimningnaporsiz, barqaror tekisharakati uchun ham yozamiz. Buning uchun quyidagi hisoblash sxemasidan foydalanamiz.

Faraz qilaylik, ochiq o‘zantubining nishabligi $i > 0$ bo‘lib, unda notekis sekin o‘zgaruvchan harakat amalga oshmoqda (8. 3-rasm).



8. 3-rasm. Suv oqimining barqaror harakati differensial tenglamasini keltirib chiqarish uchun xisobiy sxema

Ushbu o‘zanda I–I va II–II kesimlaroralig‘idagi elementar dl uzunlikdagi sohani o‘rganamiz. Bu sohada suv oqimining barqaror notekis sekin o‘zgaruvchan harakati amalga oshmoqda deb qaraymiz (8. 3-rasm). Bu sxemada quyidagi belgilashlarni qabul qilamiz:

$i = \sin\alpha$ – o‘zan tubining uzunlik bo‘yicha nishabligi;

$p_0 = p_a$ – oqim erkin sirtidagi bosim, atmosfera bosimi;

ω– oqimning harakatdagi kesim yuzasi;

$Q = const$ – oqim sarfi;

h – oqimning qaralayotgan I-I kesimdagi eng katta qiymatli chuqurligi, II-II kesimda h–dh ga o‘zgarmoqda;

α – harakatdagi kesim bo‘ylab tezlik taqsimlanishining bir xil emasligini inobatga oluvchi Koriolis koeffitsienti – kinetik energiyatuzatmasi, korrektivi;

$\upsilon = Q/\omega$ – oqimning o‘rtacha tezligi;

J_e – gidravlik nishablik, ochiq o‘zanlarda, suv oqimi erkin sirti nishabligi, ya’ni J_p – pezometrik nishablikka teng $\left(J_e = J_p\right)$ deb qabul qilinadi;

$a = il$ – taqqoslash tekisligidan I-I kesim tubigacha bo‘lgan masofa.

Tanlangan kesimlar uchun 0-0 taqqoslash tekisligiga nisbatan Bernulli tenglamasini yozamiz:

$$h + idl + \frac{p_a}{\rho g} + \frac{\alpha \upsilon^2}{2g} = h + dh + \frac{p_a}{\rho g} + \frac{\alpha(\upsilon - d\upsilon)^2}{2g} + dh_l \qquad (8.\ 1^1)$$

Ta'kidlash lozimki, ushbu tenglamani yozishda notekis harakat sekin o'zgaruvchan bo'lganligi sababli, mahalliy tezliklarning oqim harakatdagi kesimi bo'ylab, bo'ylama tashkil etuvchilari inobatga olinadi va gidrodinamik bosimning harakatdagi kesim bo'ylab taqsimlanishi gidrostatik qonuniyatga bo'ysunadi deb qaraymiz. Napor yo'qolishini esa tekis harakatdagi kabi aniqlashni qabul qilamiz, ya'ni $h_f \approx h_l$ chunki, barqaror harakat uchun

$$h_м \approx 0 \qquad (8.\ 2)$$

$$J_e = \frac{dh_l}{dl} = \frac{\upsilon^2}{C^2 R} \qquad (8.\ 3)$$

$$dh_l = \frac{\upsilon^2 dl}{C^2 R} \qquad (8.\ 4)$$

$$h + idl + \frac{\alpha \upsilon^2}{2g} = h + dh + \frac{\alpha \upsilon^2}{2g} - \frac{2\alpha \upsilon \cdot d\upsilon}{2g} + \frac{\alpha \upsilon^2}{2g} + \frac{\upsilon^2 dl}{C^2 R} \qquad (8.\ 5)$$

yoki

$$idl + \frac{\alpha \upsilon^2}{2g} = dh - \frac{\alpha \upsilon \cdot d\upsilon}{g} + \frac{\alpha \upsilon^2}{2g} + \frac{\upsilon^2}{C^2 R} dl \qquad (8.\ 6)$$

Ushbu tenglamada, nihoyatda kichik bo'lganligi sababli, $\alpha d\upsilon^2 \approx 0$ deb qabul qilsak,

$$idl = dh - \frac{\alpha \upsilon \cdot d\upsilon}{g} + \frac{\upsilon^2}{C^2 R} dl \qquad (8.\ 7)$$

Tenglamaning barcha hadlarini dS – qaralayotgan elementar soha uzunligiga bo'lamiz:

$$i = \frac{dh}{dl} - \frac{\alpha \upsilon}{g} \frac{d\upsilon}{dl} + \frac{\upsilon^2}{C^2 R} \qquad (8.\ 8)$$

Bu tenglamada

---

[1] Bu tenglamada o'zanda xarakatlanayotgan suv oqimi chuqurligining oshishi, tezlikning kamayishiga olib kelishini e'tirof etamiz.

$$\upsilon = \frac{Q}{\omega} \qquad (8.\ 9)$$

munosabatni inobatga olamiz:

$$\frac{d\upsilon}{dl} = \frac{d(Q/\omega)}{dl} = -\frac{Q}{\omega^2}\frac{d\omega}{dl} \qquad (8.\ 10)$$

Demak,

$$i = \frac{dh}{dl} + \frac{\alpha Q^2}{\omega^3 g}\frac{d\omega}{dl} + \frac{Q^2}{\omega^2 C^2 R} \qquad (8.\ 11)$$

Bu 8. 4-rasmda harakatdagi kesimning chuqurlik bo‘yicha o‘zgarishini ko‘rsatuvchi hususiy hosila, o‘zan ko‘ndalang kesimining sath bo‘yicha kengligiga teng bo‘ladi. Biz bu holda, notsilindrik o‘zanlarni ko‘rayotganligimiz uchun ω harakatdagi kesim yuzasi – h va l koordinatalarga bog‘liqdir:

$$\omega = f(h,l) \qquad (8.\ 12)$$

Buni hisobga olsak, quyidagini yozishimiz mumkin:

$$\frac{d\omega}{dl} = \left(\frac{\partial\omega}{\partial l} + \frac{\partial\omega}{\partial h}\frac{dh}{dl}\right) = \left(\frac{\partial\omega}{\partial l} + B\frac{dh}{dl}\right) \qquad (8.\ 13)$$



8. 4 rasm. Notekis harakatda sath o‘zgarishi

Demak, bunda *B* – o‘zan ko‘ndalang kesimining kengligi

$$i-\frac{dh}{dl}=-\frac{\alpha Q^2}{g}\frac{1}{\omega^3}\frac{\partial\omega}{\partial l}\frac{dh}{dl}-\frac{\alpha Q^2}{g}\frac{1}{\omega^3}\frac{\partial\omega}{\partial l}\frac{dh}{dl}+\frac{Q^2}{\omega^2C^2R} \tag{8. 14}$$

$$i-\frac{Q^2}{\omega^2C^2R}+\frac{\alpha Q^2}{g}\frac{1}{\omega^3}\frac{\partial\omega}{\partial l}=\frac{dh}{dl}\left(1-\frac{\alpha Q^2}{g}\frac{1}{\omega^3}B\right) \tag{8. 15}$$

$$\frac{dh}{dl}=\frac{i-\frac{Q^2}{\omega^2C^2R}\left(1-\frac{\alpha C^2R}{g\omega}\frac{\partial\omega}{\partial l}\right)}{1-\frac{\alpha Q^2}{g}\frac{B}{\omega^3}} \tag{8. 16}$$

Ushbu differensial tenglama suv oqimining barqaror notekis sekin o‘zgaruvchan harakati ***differensial tenglamasi*** deb yuritiladi.

Ushbu tenglama o‘zanning prizmatik holatida quyidagi ko‘rinishda mavjud bo‘ladi, ya’ni $\frac{\partial\omega}{\partial l}=0$ holat uchun:

$$\frac{dh}{dl}=\frac{i-\frac{Q^2}{\omega^2C^2R}}{1-\frac{\alpha Q^2}{g}\frac{B}{\omega^3}} \tag{8. 17}$$

Ushbu tenglamada, barqaror tekis harakatda,

$$\frac{dh}{dl}=0 \tag{8. 18}$$

deb qabul qilinsa,

$$i-\frac{Q^2}{\omega^2C^2R}=0 \tag{8. 19}$$

Bundan,

$$Q=\omega C\sqrt{Ri} \tag{8. 20}$$

Butenglama suv oqimining barqaror *tekis harakati tenglamasi* deb yuritiladi.

8. 3. BARQAROR TEKIS HARAKATNING AMALGA OSHISHI SHARTLARI VA ASOSIY FORMULALAR

Ma'lumki, oqimningbarqaror tekis naporsiz harakatida $p_0 = p_a$, $h = const$, $Q = const$, $\upsilon = const$ shart bajariladi, ya'ni oqim harakatdagi kesimining bir tomoni atmosfera bosimi bilan tutashib, oqim erkin sirtga ega bo'ladi, oqimning harakati uzunlik bo'ylab uning sarfi, o'rtacha tezligi va chuqurligi o'zgarmasdan amalga oshadi,bunday harakat *barqaror tekis naporsiz harakat* deyiladi.



8. 5-rasm. Suv oqimining kanaldagi tekis harakati sxemasi

Demak, ochiq o'zanlardagi oqim harakati barqaror tekis naporsiz bo'lishi uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

a) o‘zanning ko‘ndalang kesimi uzunlik bo‘ylab o‘zgarmas bo‘lishi, ya’ni o‘zan prizmatik (silindrsimon) ko‘rinishda bo‘lishi $\left(\frac{\partial\omega}{\partial l}=0\right)$;

b) o‘zan devorlari g‘adir-budirligi (*n=const*) o‘zgarmas bo‘lishi;

c) mahalliy napor yo‘qolishi o‘zan uzunligi bo‘ylab mavjud bo‘lmasligi; $h_M \approx 0$;

d) sarf, o‘rtacha tezlik va chuqurlik o‘zgarmas bo‘lishi, ya’ni (*Q=const*), *(h=const*).

Amaliyotda, asosan kanallarda suv oqimining turbulent harakati mavjud bo‘lib, tekis barqaror harakatdagi kvadrat qarshiliklar sohasida amalga oshganligi sababli, shu holat bilan tanishamiz (8. 5-rasm). Kanallarning gidravlik hisoblarida, asosan quyidagi bog‘liqliklardan foydalaniladi:

$$Q=\omega\upsilon=const \text{ (oqim bo‘ylab)} \qquad (8.\quad 21)$$

$$i=\sin\theta \qquad (8.\quad 22)$$

bunda, Q– oqim sarfi, m^3/s;

ω– harakatdagi kesim yuzasi, m^2;

υ– oqimning o‘rtacha tezligi; m/s;

i–kanal tubining nishabligi.

Bizga ma’lumki, qaralayotgan harakatda naporning uzunlik bo‘yicha yo‘qolishi Darsi-Veysbax formulasiga asosan quyidagicha aniqlanadi:

$$h_l=\lambda\frac{l}{D}\frac{\upsilon^2}{2g}$$

Bundan oqimning o‘rtacha tezligini aniqlasak,

$$\upsilon^2=\frac{h_l}{l}\frac{D2g}{\lambda}$$

bunda

$$\frac{h_l}{l} = J$$

$$\upsilon^2 = J\frac{2gD}{\lambda}$$

yoki

$$\upsilon = \sqrt{\frac{2g}{\lambda}}\sqrt{DJ}$$

$$C = \sqrt{\frac{2g}{\lambda}}, \left(\frac{м^{0,5}}{сек}\right)$$

$$\upsilon = C\sqrt{Ri} \qquad (8.\ 23)$$

Bu formula *Shezi formulasi* deb yuritilishi oldingi mavzularda e'tirof etilgan, bunda *S* - Shezi koeffitsienti.

Shezikoeffitsienti – gidravlik qarshilik yoki Darsi koeffitsientiga bog'liq bo'lib, nazariy asoslangan aniq bir formula asosidaaniqlash formulasi hozirgacha taklif etilmagan. Shuning uchun Shezi koeffitsientining kattaligi tadqiqotlar natijasida olingan eksperimental – empirik formulalar bilan aniqlanishi mumkin. Quyida turbulent tartibda harakatlanayotgan suv oqimi uchun uning son qiymatini aniqlash imkoniyatini beradigan tajriba-tadqiqotlar natijasiga asosan tuzilgan formulalarni keltiramiz:

1. Manning formulasi

$$C = \frac{1}{n}R^{1/6}$$

2. N. N. Pavlovskiy formulasi :

$$C = \frac{1}{n}R^y$$

bunda

$$y = 2{,}5\sqrt{n} - 0{,}13 - 0{,}75\sqrt{R}\left(\sqrt{n} - 0{,}10\right)$$

($R < 1$ *m* bo'lganda $y \approx 1{,}5\sqrt{n}$, $R > 1$ *m* bo'lganda $y \approx 1{,}3\sqrt{n}$).

3. I. I. Agroskin formulasi:

$$C = \frac{1}{n} + 17{,}72 \lg R$$

4. Forxgeymer formulasi:

$$C = \frac{1}{n} R^{0{,}2}$$

5. Bazen formulasi:

$$C = \frac{87}{1 + \frac{\gamma}{\sqrt{R}}}$$

bunda R– gidravlik radius, $m;\gamma$–o‘zan tubi va devorlarining g‘adir-budirligiga bog‘liq bo‘lib, quyidagi jadvalga asosan aniqlanishi mumkin.

8. 1-jadval

Nihoyatda silliq devorlar (suvoqli yoki silliqlangan taxtali)	0,06
Silliq devorlar	0,16
Tabiiy holatdagi tuproqli devorlar	1,35
G‘adir-budir tuproqli devorlar	1,75

6. Gangile-Kutter formulasi:

$$C = \frac{23 + \frac{1}{n} + \frac{0{,}00155}{i}}{1 + \left(23 + \frac{0{,}00155}{i}\right)\frac{n}{\sqrt{R}}}$$

7. A. D. Altshul formulasi:

$$C = 25\left[\frac{R}{(80n)^6 + \frac{0{,}025}{\sqrt{RI}}}\right]^{\frac{1}{6}}$$

Ushbu formula muallifi fikriga asosan turbulent tartibdagi oqim harakatining silliq o‘zanlar, kvadrat qarshilikkacha va kvadrat qarshilik sohalari uchun ham o‘rinli hisoblanadi.

Laminar tartibdagi harakat gidrotexnika amaliyotida amaliy jihatdan uchramaydi. Lekin shunga qaramasdan, ushbu tartibdagi harakat uchun ham Shezi koeffitsientini aniqlash formulalari olingan. Masalan, Xopf formulasini keltirish mumkin:

$$C = 1{,}81\left[\sqrt{1 - 0{,}315\frac{h}{b}}\right]\sqrt{\mathrm{Re}}$$

bunda, Re – Reynolds soni.

Barcha keltirilganformulalarda g‘adir-budirlik koeffitsienti qatnashayotganligiga e’tiborni qaratsak, bu kattalikni aniqlash ham ancha murakkab masala hisoblanadi. Tabiiy o‘zanlar va kanallar uchun bu kattalik o‘zan g‘adir-budirligiga, o‘zanning ko‘ndalang kesim shakli o‘zgaruvchanligiga, o‘zanlarda turli suv o‘simliklari borligiga, loyqa qatlamlari miqdoriga, ularning geometrik o‘lchamlariga va boshqa omillarga bog‘liqdir.

Tadqiqotlar natijasi bu kattalikni nafaqat uzunlik bo‘yicha, balki, aynan bir sohada suv sathi o‘zgarishi bilan boshqa qiymat qabul qilishini tasdiqlagan. Agar o‘zan suv bosadigan qirg‘oqli bo‘lsa,g‘adir-budirlik koeffitsienti keskin o‘zgaruvchan xarakterga ega bo‘ladi. Shuning uchun bu koeffitsient kattaligini aniqlashda har bir o‘zan uchun alohida yondashish maqsadga muvofiqdir. Oldingi mavzularda bu masalaga batafsil to‘xtalganmiz. Gidrotexnika amaliyotida suv oqimining ortiqcha kinetik energiyasini kamaytirib,uning buzuvchanlik qobiliyatini pasaytirish uchun o‘zanning g‘adir-budirligi sun’iy ravishda oshirilishi qo‘llaniladi. Bu mavzuga o‘z o‘rnida batafsil to‘xtalamiz.

Tekis harakat shartiga asosan,quyidagi tenglik o‘rinli hisoblanadi

$$J = i \tag{8. 24}$$

Bunda *J*– gidravlik qiyalik;

Veysbax formulasiga asosan

$$i = \frac{\upsilon^2}{C^2 R} \tag{8. 25}$$

$$h_l = il = \frac{\upsilon^2}{C^2 R} l \tag{8. 26}$$

$$Q = \omega C \sqrt{Ri} \tag{8. 27}$$

Bu formula yuqoridagi mavzuda keltirib chiqarilgan,oqim *naporsiz barqaror tekis harakatining hisoblanish formulasidir*.

Bundan tashqari,naporsiz barqaror tekis harakatni o‘rganishda sarf va tezlik moduli tushunchalaridan foydalaniladi:

$$\left.\begin{aligned} K &= \omega C \sqrt{R} \\ K &= \frac{Q}{\sqrt{i}} \end{aligned}\right\} \qquad \left.\begin{aligned} W &= C \sqrt{R} \\ W &= \frac{\upsilon}{\sqrt{i}} \end{aligned}\right\} \tag{8. 28}$$

$$Q = K\sqrt{i} \qquad \upsilon = W\sqrt{i} \tag{8. 29}$$

$$i = \frac{Q^2}{K^2}; \qquad i = \frac{\upsilon^2}{W^2} \tag{8. 30}$$

bunda, *K* – sarf moduli; *W* – tezlik moduli.

8. 4. TABIIY O‘ZAN VA KANALDA HARAKATLANAYOTGAN OQIM HARAKATDAGI KESIMINING ASOSIY GIDRAVLIK ELEMENTLARI

Tabiatda daryo o‘zanlari jamlangan va poymali bo‘lishi mumkin. Jamlangan o‘zan 8. 6, *a*-rasm) li daryolar bir o‘zandan iborat bo‘ladi. Poymali daryolar (8. 6, *b*-rasm) daryodagi suvning miqdoriga bog‘liq holda bir necha irmoqlarga bo‘linib oqishi quzatiladi. Bunga Amudaryo yoki Sirdaryo yaqqol misol bo‘lishi mumkin. Masalan, Amudaryoning Qarshi Magistral kanaliga suv olish sohasida kuz va qish davrlarida ikki yoki uch irmoq bo‘lib oqishi kuzatilsa, suv sarfi katta davrlar bahor va yozda bitta o‘zanni kuzatishimiz mumkin.



8. 6-rasm. a) jamlangan o‘zan, b) poymali daryo

Tabiiy o‘zanlarning gidravlik elementlari o‘zan tubi nishabligi,oqim sarfi va gidrografi,o‘zan shakli, o‘zan bilan oqim o‘rtasidagi murakkab munosabat bilan asoslanadi. Suyuqlik oqimi dinamikasini o‘rganishga katta hissa qo‘shgan olim M. A. Velikanov oqim tarkibida harakatlanuvchi qattiq jism zarrachalari o‘rtasidagi murakkab bog‘liqliklar– iqlimga va daryo morfologik xarakteristikasiga bog‘langan holda maxsus eksperimental morfometrik formulalar yordamida aniqlanishini e’tirof etgan va bunday formulalarni Rossiya Federatsiyasining Evropa xududidagi daryolar uchun tavsiya etgan. Markaziy Osiyodagi Amudaryo va Sirdaryo daryolari uchun, dala tadqiqot materiallari asosida M. A. Velikanov formulasini o‘zgartirilgan ko‘rinishini professor X. A. Ismagilov tavsiya etgan. Ushbu formulalar maxsus ilmiy adabiyotlarda keltiriladi.

Gidrotexnika amaliyotida ko‘p uchraydigan kanallarning ko‘ndalang kesimi shakllari 8. 7-rasmda tasvirlangan.



8. 7-rasm. Kanallarning ko‘ndalang kesim shakllari

Simmetrik trapetsiadal ko‘ndalang kesim (8. 7, a-rasm). Bunda *b* – kanal tubining kengligi; *h* – kanaldagi oqimning chuqurligi; *m* – kanalyon devorining qiyalik koeffitsienti:

$$m = ctg\,\psi \tag{8. 31}$$

Kanaldagi oqim harakatdagi kesimining sath bo‘yicha kengligi

$$B = b + 2mh \tag{8. 32}$$

Harakatdagi kesim yuzasi – ω va xo‘llangan perimetr – χ kattaligini quyidagi geometrik ifodalar yordamida aniqlash mumkin.

$$\omega = (b + mh)h \tag{8. 33}$$

$$\chi = b + 2h\sqrt{1 + m^2} \tag{8. 34}$$

Gidravlik radiusni esa quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$R = \frac{\omega}{\chi} \tag{8. 35}$$

Bundan tashqari, bu kanallarning parametrlarini aniqlashda *kanal tubining nisbiy kengligi* deb ataluvchi nisbiy tushunchadan foydalaniladi:

$$\beta = \frac{b}{h} \tag{8. 36}$$

Bu ifodani inobatga olgan holda ω va χ kattaliklar quyidagicha aniqlanishi mumkin:

$$\omega = h^2(\beta + m) \quad (8.\ 37)$$

$$\chi = h\left(\beta + 2\sqrt{1+m^2}\right) \quad (8.\ 38)$$

Uchburchak shakldagi kesimli kanallar uchun $\omega = \beta h^2$; $\chi = h(\beta + 2)$.

Ko‘ndalang kesimi to‘rtburchak shaklda bo‘lganda, yuqorida keltirilgan gidravlik parametrlarni aniqlashda quyidagi ifodalardan foydalaniladi (8. 7, b-rasm):

$$\left.\begin{array}{ll} B = b; & m = ctg 90^0 = 0 \\ \omega = bh; & \chi = b + 2h \end{array}\right\} \quad (8.\ 39)$$

Agar o‘zan juda keng to‘g‘ri to‘rtburchakli bo‘lsa,

$$\chi \approx b \quad (8.\ 40)$$

*Ko‘ndalang kesimi uchburchak (*8. 7, *v*-rasm).

$$\left.\begin{array}{ll} b = 0; & B = 2mh \\ \omega = mh^2; & \chi = 2h\sqrt{1+m^2} \end{array}\right\} \quad (8.\ 41)$$

Agar kanalning chuqurligi uning kengligiga nisbatan juda katta bo‘lmasa,oqimning o‘rtacha tezligi va sarfi quyidagi formulalar yordamida aniqlanishi mumkin:

$$\upsilon = C\sqrt{\frac{1}{2}hi}$$

$$Q = \frac{Bh}{2}C\sqrt{\frac{1}{2}hi}$$

Ko‘ndalang kesimi parabola shaklida bo‘lganda, parabola tenglamasi quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$x^2 = 2py \quad (8.\ 42)$$

bunda *r* – parabola perimetri; *x*, *u* – o‘qlar 8. 7, g-rasmda ko‘rsatilgan.

Oqimning sath bo‘yicha kengligi B,gidravlik radius R,harakatdagi kesim yuzasi ω quyidagi formulalar asosida aniqlanishi mumkin:

$$B = \sqrt{8ph}$$

$$R = \frac{2}{3}h$$

$$\omega = \frac{2}{3}Bh \qquad (8.\ 43)$$

$$\left.\begin{array}{lll} \chi \approx B .... & agar & (h:B) \leq 0{,}15 \\ \chi \approx B\left[1 + \frac{8}{3}\left(\frac{h}{B}\right)^2\right] .... & agar & (h:B) \leq 0{,}33 \\ \chi \approx 1{,}78h + 0{,}61B .... & agar & 0{,}33 < (h:B) < 2{,}00 \\ \chi \approx 2h .... & agar & 2{,}00 \leq (h:B) \end{array}\right\} \qquad (8.\ 44)$$

Agar kanalning chuqurligi uning kengligiga nisbatan juda katta bo‘lmasa,oqimning o‘rtacha tezligi va sarfi quyidagi formulalar yordamida aniqlanishi mumkin:

$$\upsilon = C\sqrt{\frac{2}{3}hi}$$

$$Q = 1{,}523\sqrt{p}Ch^2\sqrt{i}$$

Keng va chuqur bo‘lmagan daryo o‘zanlari. Nisbiy kengligi $\beta = \frac{B}{h} < 20$ bo‘lgan daryolar uchun $R \approx h;\ \ \omega \approx Bh;\ \ \chi = B$ deb qabul qilinib,quyidagi formulalardan foydalanish mumkin:

$$\upsilon = C\sqrt{hi}$$

$$Q = CBh\sqrt{hi}$$

8. 5. TRAPETSIADAL KESIMLI KANALNING ENG QULAY GIDRAVLIK PROFILI

Faraz qilaylik, kanalning ko‘ndalang kesim shakli trapetsiadal bo‘lib, $m = m_0, i = i_0, n = n_0, Q = Q_0$ kattaliklar berilgan. Kanal ko‘ndalang kesimining geometrik o‘lchamlarini aniqlash kerak bo‘lsin (8. 8, *a*-rasmga qarang).

Bu masala bir necha echimga ega.

$$\left.\begin{aligned} m_1 = m_2 = m_3 = \ldots = m_0 = const \\ i_1 = i_2 = i_3 = \ldots = i_0 = const \\ n_1 = n_2 = n_3 = \ldots n_0 = const \\ Q_1 = Q_2 = Q_3 = \ldots = Q_0 = const \end{aligned}\right\} \quad (8.\ 45)$$

bunda 1,2,3-indekslar har xil variantdagi kanallar uchun.



8. 8-rasm. Trapetsiadal kanalda β nisbiy kenglikning o‘zgarishi natijasida χ, ω, υ, Q harakatdagi kesim elementlarining o‘zgarishi

Faraz qilaylik, agar kanal ko‘ndalang kesimida nihoyatda kichik chuqurlik bo‘lsa, kerakli sarfni o‘tkazish uchun u juda keng bo‘lishi, yoki aksincha, kichik o‘lchamdagi kenglik bo‘lsa, juda katta chuqurlik mavjud bo‘lishi kerak.

Bu variantlar uchun,

$$\upsilon = \upsilon_{макс} \tag{8. 46}$$

$$\omega = \omega_{мин} \tag{8. 47}$$

talabga mos keluvchi o‘lchamlar $(b:h)$ mavjud bo‘ladi.

Demak, berilgan *m, i, n, Q* kattaliklar uchun eng kichik ko‘ndalang kesimga va eng yuqori oqim tezligiga ega bo‘lgan kesim mavjud bo‘ladi. Bunday kesim *eng qulay gidravlik kesim* deyiladi.

Eng qulay gidravlik kesimning nisbiy kengligi quyidagicha aniqlanadi.

$$\beta_{г.э.к} = \left(\frac{b}{h}\right)_{г.э.к} \tag{8. 48}$$

8. 8, b-rasmdagi I-II vertikal funksiyalar $\chi = f_1(\beta)$; $\omega = f_2(\beta)$ va $\upsilon = f_3(\beta)$ eng katta qiymatlarg a ega bo‘ladi, ya’ni

$$\left.\begin{array}{l} \dfrac{d\omega}{d\beta} = 0 \\ \dfrac{d\chi}{d\beta} = 0 \end{array}\right\} \tag{8. 49}$$

deb yozish mumkin.

(8. 37) va (8. 38) ifodalarni differensiallaymiz

$$\frac{d\omega}{d\beta} = 2h\beta_{г.э.к}\left(\frac{dh}{d\beta}\right)_{г.э.к} + h^2 + 2mh\left(\frac{dh}{d\beta}\right)_{г.э.к} = 0 \tag{8. 50}$$

$$\frac{d\chi}{d\beta} = \beta_{г.э.к}\left(\frac{dh}{d\beta}\right)_{г.э.к} + h + 2\sqrt{1+m^2}\left(\frac{dh}{d\beta}\right)_{г.э.к} = 0 \tag{8. 51}$$

Bu tenglamani echsak,

$$\beta_{г.э.к} = \left(\frac{b}{h}\right)_{г.э.к} = 2\left(\sqrt{1+m^2} - m\right) \tag{8. 52}$$

Gidrotexnika amaliyotida kanalning qurilish tannarxini arzonlashtirish uchun $\beta = \beta_{г.э.к}$ shartning bajarilishi loyiha jarayonida ta’minlanadi.

Lekin, ta'kidlash lozimki, ko'pincha eng qulay gidravlik kesimli kanallarda, ko'pgina hollarda, chuqurlik katta qiymatga ega bo'ladi. Bu esa kanallar qurishni va ekspluatatsiya jarayonini qiyinlashtiradi. Shu sababli, bu kesimdan 3÷4 % ga farq qiluvchi eng qulay amaliy kesimning nisbiy kengligi $\beta^{0}_{г.э.к}$ degan tushunchasidan foydalaniladi.

$$\beta_{г.э.к} \le \beta^{0}_{г.э.к} \le \left(\beta_{г.э.к}\right)_{чег}$$

$$\left(\beta_{г.э.к}\right)_{чег} = 2{,}5 + \frac{m}{2} \qquad (8.53)$$

8. 6. KANALAR O'ZANINI GIDRAVLIK LOYIHALASHDA FOYDALANILADIGAN ASOSIY FORMULALAR VA MASALALAR

Gidrotexnik inshoatlarning gidravlik hisoblarini bajarishda ko'pgina hosilaviy formulalardan keng foydalaniladi. Ulardan ayrimlarini keltiramiz.

1. Oqim gidravlik radiusining eng katta-maksimal qiymati:

$$R_{\max} = \left|\frac{QN}{4M}\right|^{3/8} \qquad (8.54)$$

2. Oqim o'rtacha tezligining minimal qiymati:

$$\upsilon_{\min} = 0{,}826\upsilon_{\max} \qquad (8.55)$$

3. Kanalo'zani yon devori qiyalik koeffitsientiga bog'liq bo'lgan hosilaviy kattaliklar:

$$m' = 2\sqrt{1+m^2} \qquad (8.56)$$

$$M = 2m' - m \qquad (8.57)$$

4. Kanal o'zani g'adir-budirligi va tubi nishabligiga bog'liq kattalik:

$$N = \frac{n}{\sqrt{i}} \qquad (8.58)$$

5. Kanal o'zanining gidravlik eng qulay kesimi nisbiy kengligi:

$$\beta_{г.э.к} = 2\sqrt{1+m^2} - m = M - m \qquad (8.59)$$

$$\beta_{\max} = 2M - m \qquad (8.60)$$

6. Oqimning o‘rtacha tezligi eng katta – maksimal qiymati:

$$\upsilon_{мax} = \frac{1}{N}\left|\frac{N\cdot Q}{4M}\right|^{1/4} \qquad (8.61)$$

7. Loyihalashtirilayotgan kanal o‘zani tubining kengligini aniqlash uchun S. A. Girshkan formulasi

$$b_Г = 3\sqrt[4]{Q} - m \qquad (8.62)$$

a) agar $Q < 1{,}5$ $м^3/c$ bo‘lsa, $b_Г = 1{,}5Q^{0{,}83}$

b) agar $Q = 1{,}5 \div 50$ $м^3/c$ bo‘lsa, $b_Г = 1{,}5Q^{2/3}$

c) agar $Q > 50$ $м^3/c$ bo‘lsa, $b_Г = 1{,}4Q^{2/3}$.

8. Gidravlik radiusning eng kichik qiymati

$$R_{\min} = 0{,}733R_{\max} \qquad (8.63)$$

$$R^2 = h^2\left(\frac{\beta+m}{\beta+2m'}\right)^2 \Rightarrow R^2\left(\frac{(\beta+2m')^2}{\beta+m}\right) = h^2(\beta+m) = \omega \qquad (8.64)$$

9. Sheziva Manning formulalarini birgalikda gidravlik radiusga nisbatan hisoblasak:

$$C = \frac{1}{n}R^{1/6} \Rightarrow R^{1/6} = Cn \qquad (8.65)$$

$$\upsilon = C\sqrt{Ri} \Leftrightarrow C = \frac{\upsilon}{\sqrt{Ri}} \qquad (8.66)$$

$$R^{1/6} = Cn = \frac{\upsilon}{\sqrt{Ri}}n \Leftrightarrow R^{1/6}R^{1/2} = R^{2/3} = \frac{\upsilon n}{\sqrt{i}} = \upsilon N \Leftrightarrow R = (\upsilon N)^{3/2} \qquad (8.67)$$

Olingan formula Shezi-Manning formulasi deb yuritiladi:

$$R = (\upsilon N)^{3/2} \qquad (8.68)$$

10. Shezi-Manning formusiga asoslanib, gidravlik radiusni aniqlash. Yuqoridagi olinganformulaga oqimning uzluksizlik tenglamasini qo‘yib,quyidagi arifmetik amallarni bajaramiz:

$$R=(N\upsilon)^{3/2}=\left(N\frac{Q}{\omega}\right)^{3/2}=\left(N\frac{Q}{R^2\left(\frac{(\beta+2m')^2}{\beta+m}\right)}\right)^{3/2}=\left(NQ\frac{\beta+m}{(\beta+2m')^2}\right)^{3/8} \quad (8.69)$$

Demak,gidravlik radiusni quyidagicha aniqlashimiz mumkin:

$$R=\left(NQ\frac{\beta+m}{(\beta+2m')^2}\right)^{3/8} \quad (8.70)$$

11. Kanal ko‘ndalang kesimi tubi kengligining standart qiymatlari $b_{cm}=$0,2; 0,3; 0,4; 0,5; 0,6; 0,7; 1,0; 1,2; 1,5; 1,8; 2,0; 2,5; 3,0; 3,5; 4,0; 4,5; 5,0; 6,0; 7,0*m*dan keyin har bir metrdan keyingi qiymat qabul qilinishi mumkin.

Yuqoridagi mavzularga asosan xulosa qilish mumkinki,gidrotexnika amaliyotida kanallarni eng qulay ko‘rinishi yarim aylana bo‘lib,bunday kanallar to‘g‘ri gidravlik loyihalashtirilganda – ular uzoq vaqt deformatsiyasiz (loyqa bosish yoki yuvilish) ishlashi mumkin. Lekin hozirgi gidrotexnika qurilishi amaliyoti uchun ishlab chiqilgan texnikalar bunday kesimli o‘zanga ega kanallarni qurish imkoniyatini bermaydi. Shu sababli,hozirgi davrda asosan bu shaklga yaqin bo‘lgan trapetsiadal shaklli kanallarni qurish amaliyotda keng qo‘llaniladi. Trapetsiadal kesimli kanallar asosan quyidagi olti asosiy elementlar bilan xarakterlanadi. *b, h, m* – kanal ko‘ndalang kesimini xarakterlovchi elementlar va *n, i, Q* – kattaliklar. Bu olti elementni ma’lum bo‘lishi – kanallarni gidravlik loyihalashtirishning birinchi bosqichi bajarilganligini bildiradi. Bu kattaliklarning barchasini aniqlash gidravlik masalaning mohiyatini tashkil qiladi.

I. Berilgan: kanal – trapetsiadal

h, b, m, i, n

Aniqlash kerak:

Q -?

Hisoblash tartibi:

1. Harakatdagi kesim va ho‘llangan perimeter kattaligi hisoblanadi:

$$\omega = (b + mh)h; \qquad \chi = b + 2h\sqrt{1 + m^2}$$

2. Gidravlik radius hisoblanadi:

$$R = \frac{\omega}{\chi}$$

3. Manning formulasidan foydalanib, Shezi koeffitsienti hisoblanadi:

$$C = \frac{1}{n} R^{1/6}$$

4. Oqimning o‘rtacha tezligi hisoblanadi:

$$\upsilon = C\sqrt{Ri}$$

5. Oqim sarfi hisoblanadi:

$$Q = \omega\upsilon$$

II. Berilgan: kanal – trapetsiadal

b, h, m, n, Q

Aniqlash kerak

i - ? υ - ?

Hisoblash yuqoridagi tartibda davom etadi. Faqat oqimning o‘rtacha tezligi quyidagicha hisoblanadi:

$$\upsilon = \frac{Q}{\omega}$$

Keyin kanal tubining nishabligi hisoblanadi:

$$i = \frac{\upsilon^2}{C^2 R}$$

III. Berilgan: kanal – trapetsiadal

m, b, n, i, Q

Aniqlash kerak:

h- ?

Hisoblash “tanlash” usulida olib boriladi:

8. 2-jadval

№	Hisoblash formulalari	O‘lchov birlik-lari	Ixtiyoriy tanlangan chuqurliklar				Izoh
1	h	m	h_1	h_2	h_3	$\dots$	
2	mh	m	$\dots$	$\dots$	$\dots$	$\dots$	$m = \dots$
3	$b + mh$	m	$\dots$	$\dots$	$\dots$	$\dots$	$b = \dots$
4	$\omega = (b + mh)h$	m^2	$\dots$	$\dots$	$\dots$	$\dots$	
5	$2h\sqrt{1 + m^2}$	m	$\dots$	$\dots$	$\dots$	$\dots$	$2\sqrt{1 + m^2} = \dots$
6	$\chi = b + 2h\sqrt{1 + m^2}$	m	$\dots$	$\dots$	$\dots$	$\dots$	
7	$R = \omega / \chi$	m	$\dots$	$\dots$	$\dots$	$\dots$	
8	$C = \frac{1}{n} R^{1/6}$	$м^{0,5}/с$	$\dots$	$\dots$	$\dots$	$\dots$	- Manning formulasi
9	$Q = \omega C \sqrt{Ri}$	$м^3/с$	$\dots$	$\dots$	$\dots$	$\dots$	

1) Chuqurlikka ixtiyoriy qiymatlar berilib, yuqoridagi jadvalda keltirilgan tartibda hisoblash bajarilib, shu qiymatga mos keluvchi sarf topiladi.
2) Chuqurlikka kamida 3 ta qiymat berib, hisoblash $Q_1 < Q < Q_3$ yoki $Q_1 > Q > Q_3$ shart bajarilguncha bajariladi.



8. 9-rasm. $Q = f(h)$ grafigi

3) yuqoridagi hisoblashlarga asosan $Q = f(h)$ grafigi qurilib, bu grafikdan berilgan sarfga mos keluvchi chuqurlik qiymati tanlanadi (8. 9-rasm).

Umuman, kanallarning loyihalashtirilishi bo‘yicha gidravlik hisoblar bajarishda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash injenerlari institutining «Gidravlika» kafedrasi olimlari tomonidan keng miqyosda ish olib borilganligini ta’kidlash o‘rinlidir.

IV. Berilgan: kanal – trapetsiadal

Berilgan:

$b = 0{,}7\,m,\ h = 1{,}0\,m,\ m = 1{,}25,\ n = 0{,}030,\ \upsilon = 0{,}53\ м/с.$

Aniqlash kerak:

Q - ?i - ?

Hisoblash:

1) Harakatdagi kesim yuzasini aniqlaymiz:

$$\omega = (b + mh)h = (0{,}7 + 1{,}25 \cdot 1{,}0) \cdot 1{,}0 = 1{,}95\,m^2;$$

2) Sarfni hisoblaymiz:

$$Q = \upsilon\omega = 0{,}53 \cdot 1{,}95 = 1{,}035\ м^3/с;$$

3) Ho‘llangan perimetrni aniqlaymiz:

$$\chi = b + 2h\sqrt{1 + m^2} = 0{,}7 + 2 \cdot 1{,}0\sqrt{1 + (1{,}25)^2} = 3{,}7\,m;$$

4) Gidravlik radiusni aniqlaymiz:

$$R = \frac{\omega}{\chi} = \frac{1,95}{3,7} = 0,53 \ m;$$

5) Shezi koeffitsienti quyidagicha aniqlanadi:

$$C = \frac{1}{n} R^{1/6} = 29 \ м^{0,5}/с;$$

6) O‘zan nishabligini aniqlaymiz:

$$i = \frac{Q^2}{C^2 \omega^2 R} = \frac{(1,035)^2}{29^2 \cdot (1,95)^2 \, 0,53} = 0,0006.$$

V. Berilgan: kanal – trapetsiadal

$b = 6,0\,m, m = 1,0$, $n = 0,012$, $Q = 19,1 \ м^3/с, \upsilon = 1,06 \ м/с$.

Hisoblash:

Harakatdagi kesimni quyidagi ikki formulaga asosan aniqlash mumkinligidan foydalanib,ular bilan matematik amallarni bajarib, kvadrat tenglamaga ega bo‘lamiz:

1) $\omega = \frac{Q}{\upsilon} = \frac{19,91}{1,06} = 1,88\,m^2;$

2) $\omega = (b + mh)h \Rightarrow mh^2 + bh - \omega = 0;$

3) Bu tenglamani echib,undan chuqurlikni aniqlaymiz:

$$h_{1,2} = \frac{-b \pm \sqrt{b^2 + 4\omega m}}{2m} = \frac{-6 \pm \sqrt{6^2 + 4 \cdot 1 \cdot 1,88}}{2 \cdot 1} = \frac{-6 \pm 6,6}{2} \Rightarrow h = \frac{0,6}{2} = 0,3m.$$

Izoh o‘rnida ta’kidlab o‘tamizki,ildizning faqat musbat qiymatinigina qabul qilamiz.

4) Ho‘llangan perimetrni hisoblaymiz:

$$\chi = b + 2h\sqrt{1 + m^2} = 6 + 2 \cdot 0,3\sqrt{1 + 1^2} = 6,85\,m;$$

5) Gidravlik radiusni hisoblaymiz:

$$R = \frac{\omega}{\chi} = \frac{1,88}{6,85} = 0,27\,m;$$

6) Shezi koeffitsientini Pavlovskiy grafigidan foydalanib, aniqlaymiz:

$$C = 69\ \text{м}^{0,5}/c\,;$$

7) O‘zan tubi nishabligini aniqlaymiz

$$i = \frac{\upsilon^2}{C^2 R} = \frac{(1,06)^2}{(69)^2\,0,27} = 0,0009$$

VI. Berilgan: kanal – trapetsiadal

$h = 6{,}0\, m,\ m = 1{,}75,\ n = 0{,}018, Q = 190\ м^3/с, \upsilon = 1{,}36\ м/с$.

Aniqlash kerak

b- ? *i* - ?

Hisoblash:

1) Harakatdagi kesim yuzasini hisoblaymiz:

$$\omega = \frac{Q}{\upsilon} = \frac{190}{1{,}36} = 139{,}7\, m^2;$$

2) Tezlik modulini quyidagicha aniqlashimiz mumkin:

$$W = \frac{\upsilon}{\sqrt{i}} = \frac{1{,}36}{\sqrt{0{,}000064}} = 170;$$

3) Kanal tubining kengligini hisoblaymiz:

$$\omega = (b + mh)h \Rightarrow b = \frac{\omega - mh^2}{h} = \frac{139{,}7 - 1{,}75 \cdot 6}{6} = 21{,}5\, m;$$

4) Kanal tubi kengligining standart qiymatlaridan foydalanib, standart kenglikni qabul qilamiz: $b_{cm} = 22м$.

5) Kanalning tubini uzunlik bo‘yicha nishabligini aniqlaymiz:

$$i = \frac{\upsilon^2}{W^2} = \left(\frac{1{,}36}{170}\right)^2 = 0{,}000064$$

VII. Berilgan: kanal – trapetsiadal

$b = 6{,}0\, m, m = 1{,}0,\ n = 0{,}012, Q = 19{,}91\, м^3/с, \upsilon = 1{,}06\ м/с$.

Aniqlash kerak

h-?*i*-?

Hisoblash:

1) Quyidagi kattalikni hisoblaymiz:

$$m' = 2\sqrt{1+m^2} = 2\sqrt{1+1^2} = 2{,}83;$$

2) Harakatdagi tezlikni hisoblaymiz:

$$\omega = \frac{Q}{\upsilon} = \frac{19{,}91}{1{,}06} = 1{,}88\, m^2;$$

3) $\omega = (b + mh)h \Rightarrow mh^2 + bh - \omega = 0$

4) $h_{1,2} = \dfrac{-b \pm \sqrt{b^2 + 4\omega m}}{2m} = \dfrac{-6 \pm \sqrt{6^2 + 4 \cdot 1 \cdot 1{,}88}}{2 \cdot 1} = \dfrac{-6 \pm 6{,}6}{2} \Rightarrow h = \dfrac{0{,}6}{2} = 0{,}3\, m;$

5) Ho‘llangan perimetrni hisoblaymiz:

$$\chi = b + hm' = 6 + 0{,}3 \cdot 2{,}83 = 6{,}85\, m;$$

6) Gidravlik radiusni hisoblaymiz:

$$R = \frac{\omega}{\chi} = \frac{1{,}88}{6{,}85} = 0{,}27\, m;$$

7) Shezi-Manning formulalariga asoslanib,nishablikni quyidagicha aniqlashimiz mumkin:

$$i = \left(\frac{\upsilon n}{R^{2/3}}\right)^2 = \left(\frac{1{,}06 \cdot 0{,}012}{0{,}27^{2/3}}\right)^2 = 0{,}0009$$

VIII. Berilgan: kanal – trapetsiadal

$\omega = 34\, m^2$, R = 1,65 m; m = 1,0.

Aniqlash kerak

b - ? h - ?

Hisoblash:

1) Ho‘llangan perimetrni hisoblaymiz:

$$\chi = \frac{\omega}{R} = \frac{34}{1{,}65} = 20{,}61\, m;$$

2) Bizga ma’lum bo‘lgan quyidagi munosabatlarni yozib, ularni ikki noma’lumli tenglamalar sistemasi sifatida qabul qilamiz va ulardan ikkinchisidan noma’lum parametrni aniqlash formulasini yozamiz va

birinchisiga qo‘yamiz hamda chuqurlikni aniqlash imkoniyatini beradigan kvadrat tenglamaga ega bo‘lamiz va uni chuqurlikka nisbatan echamiz:

$$\omega = (b + mh)h \Rightarrow mh^2 + bh - \omega = 0$$

$$b + 2m'h - \chi = 0 \Rightarrow b = \chi - 2m'h$$

bundan, $mh^2 + (\chi - 2m'h)h - \omega = 0$ yoki $(m - 2m')h^2 + \chi h - \omega = 0$;

$(2m' - m)h^2 - \chi h + \omega = 0$ bunda, $M = 2m' - m$ munosabatni inobatga olsak,

$$Mh^2 - \chi h + \omega = 0$$

3) $M = 2\sqrt{1+1^2} - 1 = 1{,}83$

$$h = \frac{\chi \pm \sqrt{\chi^2 - 4M\omega}}{2M} = \frac{20{,}61 \pm \sqrt{(20{,}61)^2 - 4 \cdot 2{,}83 \cdot 34}}{2 \cdot 1{,}83} = \frac{20{,}61 \pm 6{,}32}{3{,}66}\, m;$$

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish kerakki,

a) agar $\frac{m}{(2m')^2} < \frac{R^2}{\omega} < \frac{1}{4M}$ shart bajarilsa, *h* va *b* kattaliklar ikkitadan echimga ega bo‘ladi;

b) agar $\frac{m}{(2m')^2} > \frac{R^2}{\omega}$, shart bajarilsa u holda *h* va *b* kattaliklar bittadan echimga ega bo‘ladi;

c) agar $\frac{R^2}{\omega} > \frac{1}{4M}$ bo‘lsa,bu gidravlik masalaning echimi mavjud bo‘lmaydi.

3) shartlarni tekshiramiz:

$$\frac{m}{(2m')^2} = \frac{1}{(2 \cdot 1{,}83)^2} = 0{,}075 > \frac{R^2}{\omega} = \frac{(1{,}65)^2}{34} = 0{,}08 < \frac{1}{4 \cdot 1{,}83} = 0{,}14$$

Demak, gidravlik masalamiz ikkinchi (*b*) shart bajarilganligi sababli bitta echimga ega bo‘ladi:

$$h_1 = \frac{20{,}61 + 6{,}32}{3{,}66} = 7{,}36\text{м}; \Rightarrow b_1 = \chi - 2m'h_1 = 20{,}61 - 2 \cdot 1{,}83 \cdot 7{,}36 = -6{,}32\, m;$$

Kenglik manfiy kattalik bo‘lishi mumkin emas:

$$h_1 = \frac{20{,}61 - 6{,}32}{3{,}66} = 3{,}90\text{м}; \Rightarrow b_1 = \chi - 2m'h_1 = 20{,}61 - 2 \cdot 1{,}83 \cdot 3{,}90 = 6{,}34\,m.$$

IX. Berilgan: kanal – trapetsiadal

Q= 3,5 $м^3/c$, $\upsilon = 0{,}84\upsilon_{\max}$, m = 1,0, n = 0,025, i = 0,000064.

Aniqlash kerak:

b - ?h - ?

Hisoblash:

1) Hosilaviy kattalikni hisoblaymiz:

$$N = \frac{n}{\sqrt{i}} = \frac{0{,}025}{\sqrt{0{,}000064}} = 3{,}13;$$

2) Hosilaviy kattalikni hisoblaymiz:

$$M = 2m' - m = 2\sqrt{1 + m^2} - m = 2\sqrt{1 + (1{,}0)^2} - 1 = 1{,}83;$$

3) Kanaldagi suv oqimining maksimal tezligini hisoblaymiz:

$$\upsilon_{мax} = \frac{1}{N}\left|\frac{NQ}{4M}\right|^{1/4} = \frac{1}{3{,}13}\left|\frac{3{,}13 \cdot 15{,}3}{4 \cdot 1{,}83}\right|^{1/4} = 0{,}51 m/s;$$

4) Oqim o‘rtacha tezligini hisoblaymiz:

$$\upsilon = 0{,}84\upsilon_{мax} = 0{,}84 \cdot 0{,}51 = 0{,}43 m/s;$$

5) Harakatdagi kesim yuzasini hisoblaymiz:

$$\omega = \frac{Q}{\upsilon} = \frac{15{,}3}{0{,}43} = 35{,}58\,m^2;$$

6) Gidravlik radiusni Shezi formulasiga asosan hisoblaymiz:

$$R = (\upsilon N)^{3/2} = (0{,}43 \cdot 3{,}13)^{3/2} = 1{,}61 m;$$

7) Ho‘llangan perimetrni hisoblaymiz:

$$\chi = \frac{\omega}{R} = \frac{35{,}58}{1{,}61} = 40{,}15\,m;$$

8) $h = \dfrac{\chi \pm \sqrt{\chi^2 - 4M\omega}}{2M} = \dfrac{40{,}15 \pm \sqrt{(40{,}15)^2 - 4\cdot 1{,}83\cdot 35{,}58}}{2\cdot 1{,}83} = \dfrac{40{,}15 \pm 36{,}77}{3{,}66}\,m;$

9) Shartlarni bajarilishini tekshiramiz:

$$\frac{m}{(2m')^2} = \frac{1}{(2\cdot 1{,}83)^2} = 0{,}075 > \frac{R^2}{\omega} = \frac{(1{,}61)^2}{35{,}58} = 0{,}072 < \frac{1}{4\cdot 1{,}83} = 0{,}14$$

Demak,masala birinchi (*b*) shart bajarilganligi sababli, bir echimga ega bo‘ladi:

$$h_1 = \frac{40{,}15 - 36{,}77}{3{,}66} = 0{,}92 \Rightarrow b_1 = \chi - 2m'h = 40{,}15 - 2{,}83\cdot 0{,}92 = 37{,}54\,m.$$

Javob:h = 0,92 *m*, b = 38 *m.*

X. Berilgan: kanal – trapetsiadal

m = 1,0,n = 0,012, Q = 19,1 $м^3/c$, $\upsilon = 1{,}06$ $м/c$, i = 0,00007,R=0,8R_{max}

Aniqlash kerak:

b - ? , h - ?

Hisoblash:

1) Hosilaviy kattalikni hisoblaymiz:

$$N = \frac{n}{\sqrt{i}} = \frac{0{,}012}{\sqrt{0{,}00007}} = 1{,}5;$$

2) Hosilaviy kattalikni hisoblaymiz:

$$M = 2m' - m = 2\sqrt{1+m^2} - m = 2\sqrt{1+(1{,}0)^2} - 1 = 1{,}83;$$

3) $R_{max} = \left|\dfrac{N\cdot Q}{4\cdot M}\right|^{\frac{3}{4}} = \left|\dfrac{1{,}5\cdot 19{,}1}{4\cdot 1{,}83}\right|^{\frac{3}{4}} = 0{,}49\,m;$

4) Gidravlik radiusni hisoblaymiz:

R = 0,8R_{max}= 0,4 *m*;

5) Harakatdagi kesim yuzasini hisoblaymiz:

$$\omega = \frac{Q}{\upsilon} = \frac{19{,}1}{1{,}06} = 18{,}02\,m^2;$$

6) Ho‘llangan perimetrni hisoblaymiz:

$$\chi = \frac{\omega}{R} = \frac{18{,}02}{0{,}4} = 45{,}05\,m;$$

7) $h = \frac{\chi \pm \sqrt{\chi^2 - 4M\omega}}{2M} = \frac{45{,}05 \pm \sqrt{(45{,}05)^2 - 4 \cdot 1{,}83 \cdot 18{,}02}}{2 \cdot 1{,}83} = \frac{45{,}05 \pm 43{,}5}{3{,}66}\,m;$

Shartlarni bajarilishini tekshiramiz:

$$\frac{m}{(2m')^2} = \frac{1}{(2 \cdot 1{,}83)^2} = 0{,}075 > \frac{R^2}{\omega} = \frac{(0{,}4)^2}{18{,}02} = 0{,}008 < \frac{1}{4 \cdot 1{,}83} = 0{,}14$$

Demak, masala ikkinchi (*b*) shart bajarilganligi sababli, bitta echimga ega bo‘ladi.

8) $h_1 = \frac{45{,}01 - 43{,}5}{3{,}66} = 0{,}43\,m; b_1 = \chi - 2m'h_1 = 45{,}01 - 2 \cdot 1{,}83 \cdot 0{,}43 = 39{,}44\,m;$

XI. Berilgan: kanal – trapetsiadal

Q = 2,6 $м^3/c$, m = 1,25, n = 0,030, i = 0,0004, $\beta_Г = 1{,}5Q^{2/3}$

Aniqlash kerak:

b - ?h - ?

Hisoblash:

1) Hosilaviy kattalikni hisoblaymiz:

$$N = \frac{n}{\sqrt{i}} = \frac{0{,}030}{\sqrt{0{,}0004}} = 1{,}5;$$

2) Girshkan formulasidan foydalanib,nisbiy kenglikni hisoblaymiz:

$$\beta_Г = 1{,}5Q^{2/3} = 1{,}5 \cdot (2{,}6)^{2/3} = 1{,}91m;$$

3) Gidravlik radiusni aniqlaymiz:

$$R = \left(NQ \frac{\beta + m}{(\beta + 2m')^2} \right)^{\frac{3}{8}} = \left(1{,}5 \cdot 2.6 \cdot \frac{1{,}91 + 1{,}25}{\left(1{,}91 + 2\sqrt{1 + 1{,}25}\right)^2} \right)^{\frac{3}{8}} = 0{,}88\,м;$$

4) Harakatdagi kesimni hisoblaymiz:

$$R^2 = h^2\left(\frac{\beta+m}{\beta+2m'}\right)^2 \Rightarrow R^2\left(\frac{(\beta+2m')^2}{\beta+m}\right) = h^2(\beta+m) = \omega$$

$$\omega = R^2\left(\frac{(\beta+2m')^2}{\beta+m}\right) = 0{,}88^2\left(\frac{\left(1{,}91+2\sqrt{1+1{,}25}\right)^2}{1{,}91+1{,}25}\right) = 10{,}61m^2;$$

5) Kanalda harakatlanayotgan oqimning chuqurligini hisoblaymiz:

$$h = \sqrt{\frac{\omega}{\beta+m}} = \sqrt{\frac{10{,}61}{1{,}91+1{,}25}} = 1{,}83m;$$

6) Kanal tubining kengligini aniqlaymiz:

$$b = \beta h = 1{,}91\cdot 1{,}83 = 3{,}50m;$$

Gidravlika fani rivoji uchun salmoqli hissa qo‘shgan yetuk olim I. I. Agroskin tomonidan kanallarning ko‘ndalang kesimi profile bilan uning shu shakldagi eng qulay kesimini taqqoslash orqali ularning gidravlik hisobini bajarishni qulay usuli taklif qilingani Gidravlika o‘quv qo‘llanmalarida keltirilgan. Bu olimning taniqli o‘quvchisi,O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan irrigator,mamlakatimizda birinchi o‘zbekgidravlikasi asoschilaridan biri R. M. Karimov tomonidan bu usul umumlashtirilib, taqqoslash uchun to‘liq absolyut eng qulay kesim – yarim aylana etalon sifatida qabul qilingan. Bu usulning yana bir qulay tomoni shundan iboratki,bunda asosan hisoblash formulalari o‘lchov birliksiz ko‘rinishda keltiriladi. Keyingi mavzuda bu usul bilan batafsil tanishamiz.

KANALLARNI LOYIHALASHTIRISHDAGI GIDRAVLIK HISOB BAJARISHDA QO‘LLANILADIGAN R. M. KARIMOV USULI

8.7. ASOSIY HISOBLASH FORMULALARI

Tekis barqaror harakatni hisoblash formulasi:

$$Q = \omega C\sqrt{Ri} \qquad (8.71)$$

Endi bu formulaga ho‘llanganlik perimetrining o‘lchov birliksiz kattaligini kiritamiz:

$$\bar{\chi} = \frac{\chi}{R} = \frac{\omega}{R^2} = \frac{\chi^2}{\omega} \qquad (8.72)$$

8.34-ifodaga $\bar{\chi}$ o‘lchov birliksiz kattalikni kiritib,quyidagi ko‘rinishda ham ifodalash mumkin:

$$Q = \bar{\chi} C R^{2,5}\sqrt{i} \qquad (8.73)$$

Bu formulaga tezlik darajasi uchun akademik Pavlovskiy yoki Manning formulalarini qabul qilib hamda $\omega = \frac{Q}{\upsilon}$ munosabatlarni inobatga olib, gidravlik radius – R,ho‘llanganlik perimetri – χ ,harakatdagi kesim yuzasi – ω va o‘rtacha tezlik – υ kattaliklar uchun quyidagi ifodalarni yozish mumkin:

$$R = \left(\frac{Qn}{\bar{\chi}\sqrt{i}}\right)^{\frac{1}{2,5+y}} \qquad (8.74)$$

$y = \frac{1}{6}$ bo‘lgan holda

$$R = \sqrt[8]{\left(\frac{Qn}{\bar{\chi}\sqrt{i}}\right)^3} \qquad (8.74')$$

$$\chi = \left(\bar{\chi}^{1,5+y}\frac{Qn}{\sqrt{i}}\right)^{\frac{1}{2,5+y}} \qquad (8.75)$$

$y = \frac{1}{6}$ bo‘lgan holda

$$\chi = \sqrt[8]{\bar{\chi}^5 \left(\frac{Qn}{\sqrt{i}} \right)^3} \qquad (8.75')$$

$$\omega = \left[\bar{\chi}^{0,5+y} \left(\frac{Qn}{\sqrt{i}} \right)^2 \right]^{\frac{1}{2,5+y}} \qquad (8.76)$$

$y = \frac{1}{6}$ bo‘lgan holda

$$\omega = \sqrt[4]{\bar{\chi} \left(\frac{Qn}{\sqrt{i}} \right)^3} \qquad (8.76')$$

$$\upsilon = \frac{\sqrt{i}}{n} \left(\frac{Qn}{\bar{\chi}\sqrt{i}} \right)^{\frac{0,5+y}{2,5+y}} \qquad (8.77)$$

$y = \frac{1}{6}$ bo‘lgan holda

$$\upsilon = \sqrt[4]{\frac{Q\sqrt{i^3}}{n^3 \bar{\chi}}} \qquad (8.77')$$

Harakatdagi kesim yuzasini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\omega = \omega_{l=1} l^2 \qquad (8.78)$$

bunda l – harakatdagi kesimning ixtiyoriy chiziqli kattaligi (chuqurlik,kenglik,ho‘llanganlik perimetri va x. k.); $\omega_{l=1}$ – $l = 1,0$ bo‘lgan holda harakatdagi kesim yuzasi.

(8. 76) formulaga asosan ixtiyoriy shakldagi harakatdagi kesimning chiziqli kattaligini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$l = \frac{1}{\sqrt{\omega_{l=1}}} \left(\bar{\chi}^{\frac{0,5+y}{2}} \frac{Qn}{\sqrt{i}} \right)^{\frac{1}{2,5+y}} \qquad (8.79)$$

yoki $y = \frac{1}{6}$ bo‘lgan holda

